

Sport – yuksak madaniyat

“Gidromelioratsiya” fakultetida 1-kurs talaba-yoshlari o'rtasida mini-futbol bo'yicha “Sport bizni birlashtiradi” shiori ostida DEKAN KUBOGI bo'lib o'tdi . Unda fakultet dekani A.Fatxulloyev, yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari O.Habibullayev, D.Allayorov hamda “Jismoniy tarbiya va sport” kafedrasini mudiri M.Norqobilov va kafedra professor-o'qituvchilari, fakultet “Yoshlar ittifoqi” yetakchisi A.Hamidovlar ishtirok etdi. Ushbu musobaqada fakultetimizni iqtidorli, sportga ishtiyoqi baland talabalar o'z guruhlarini bilan bilan faol ishtirok etishdi. O'yinlar o'ziga xos tarzda shiddatli bo'ldi. Yakunda 1-o'rin “Gidrologiya daryo va suv omborlari gidrologiyasi” yo'nalishining 108-guruh, 2-o'rin professional ta'lim: “Suv xo'jaligi melioratsiya” yo'nalishining 112-guruh va 3-o'rin “Gidrologiya daryo va suv omborlari gidrologiyasi” yo'nalishining 109-guruhlariga nasib etdi. Ushbu sport tadbirlarini tashkil etishdan asosiy maqsad yoshlarimizning sportga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish, ular orasidan bo'lg'usi respublika va xalqaro chempionatlari g'oliblarini tayyorlash, sport orqali yosh avlodni jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashdan iboratdir.



TIQXMMI matbuot xizmati